



UO‘K: 9(571).1:902.2

BUXORO VOHASINING PALEOGEOGRAFIYASI**ПАЛЕОГЕОГРАФИЯ БУХАРСКОГО ОАЗИСА****PALEO GEOGRAPHY OF BUKHARA OASIS****Ochilov Alisher To‘lis o‘g‘li** 

Buxoro davlat universiteti dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada Buxoro vohasida antropogen landshaftning vujudga kelishida Zarafshon daryosi va vohaning tarixiy geografiya muhim ahamiyat kasb etganligi tahlil qilindi. Bu keltirilgan ilmiy dalillar o‘lkadagi arxeologik obyektlarda olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari orqali isbotlandi. Quyi Zarafshon vohasi qadimgi o‘zanlari havzasidan topib tekshirilgan ibtidoiy jamoa makonlarining joylashish topografik holati, jamoalar turmush tarzida suv havzalarining o‘rni be‘qiyos ekanligini ko‘rsatib beradi. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki Buxoro vohasida insoniyatning kelib joylashishida va hududning shakllanishida Zarafshon daryosidan bosh olgan 35 ta kanalning ahamiyati katta ekanligi isbotlandi. Shuning uchun ham ushbu maqolada Buxoro vohasini shakllanishida irrigatsiya tarmoqlarining o‘rni va ahamiyati tadqiq qilindi.

Аннотация

В данной статье проанализировано значение реки Зарафшан и исторической географии оазиса в создании антропогенного ландшафта Бухарского оазиса. Эти научные доказательства подтверждены результатами научных исследований, проведенных на археологических объектах страны. Топографическое расположение первобытных сообществ, обнаруженных в котловине древних долин Нижнезарафшанского оазиса, показывает, что роль водоемов в образе жизни сообществ бесподобна. На основании этого можно сказать, что доказана значимость 35 каналов, берущих свое начало от реки Зарафшан, в расселении человечества в Бухарском оазисе и формировании региона. Поэтому в данной статье изучена роль и значение оросительных сетей в формировании Бухарского оазиса.

Abstract

This article analyzed the importance of the Zarafshan River and the historical geography of the oasis in the creation of the anthropogenic landscape in the Bukhara oasis. These scientific evidences have been proven by the results of scientific research conducted at archaeological sites in the country. The topographical location of primitive community spaces found in the basin of the ancient valleys of the Lower Zarafshan oasis shows that the role of water bodies in the lifestyle of communities is incomparable. Based on this, we can say that the importance of 35 canals starting from the Zarafshan River in the settlement of mankind in the Bukhara oasis and the formation of the region has been proven. Therefore, in this article, the role and importance of irrigation networks in the formation of Bukhara oasis was studied.

Kalit so‘zlar: Buxoro vohasi, Zarafshon daryosi, Amudaryo, tarixiy geografiya, pleystotsen, golotsen.**Ключевые слова:** Бухарский оазис, река Зарафшан, Амударья, историческая география, плейстоцен, голоцен.**Key words:** Bukhara oasis, Zarafshan river, Amudarya, historical geography, Pleistocene, Holocene.**KIRISH**

Dunyo ham jamiyatida ilk sivilizatsiyalar daryo va suv havzalari bo‘yida vujudga keladi. Masalan Qadimgi Misrda Nil havzasi bo‘yida, Mesopatamiyada Dajla va Frot daryolari oralig‘ida, Hindistonda Hind va Ganga daryolari bo‘yida qadimgi aholi manzilgohlari, shahar-davlatlar vujudga kelgan. Shu o‘rinda Buxoro vohasining shakllanishi, qadimgi aholi manzilgolari, qishloq va shaharlarning taraqqiy etishida Zarafshon daryosining o‘rni beqiyos hisoblanadi. Shu sababi tarixchilar “Buxoro-Zarafshon daryosining tuhfası” deb taqidlaydi. Sababi qadimdan Buxoro vohasining asosiy suv manbai Zarafshon daryosi hisoblangan.

O‘rta Osiyoning yirik dehqonchilik makonlaridan biri Buxoro vohasi o‘z geografik joylashuviga ko‘ra qadimdan Sharq bilan Janubi-g‘arb mamlakatlarini bog‘lovchi savdo-iqtisodiy va

TARIX

madaniy ko'prik vazifasini bajarib keldi. Buxoro vohasi dunyoga ko'plab yirik kashfiyotlar, yangiliklar bergan Xitoy sivilizatsiyasi va Qadimgi Sharq xududlarining madaniy-xo'jalik ta'siridan bahramand bo'lib rivoj topdi. Shuning bilan birga asrlar o'sha tarixiy taraqqiyot davomida vodiy o'ziga xos o'ringa ega bo'lib yuksak dehqonchilik madaniyati, rivojlangan hunarmandchilik va savdo-sotiq markazlaridan biri bo'ldi.

Buxoro vohasida o'z davrida hozirgi Buxoro viloyati va Navoiy viloyatining juda katta hududini o'z ichiga olgan bo'lib, insoniyat bu yerda tosh davridan boshlab istoqomat qilib kelgan. Vohaning asosiy suv manbai Zarafshon daryosi, Amudaryo (mil.av. 3 mingyillikga qadar), Qashqadaryo suv havzalari hisoblangan [15]. Lekin Amudaryo va Qashqadaryolardan farqli ravishda, voha shakllanishi va sug'orma dehqonchilikning taraqqiy etishida Zarafshon daryosining o'rni beqiyos hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Buxoro vohasining tarixiy geografiasida irrigatsiya tarmoqlarining o'rniga doir ma'lumotlar arxeologik tadqiqot natijalari, N.F.Sitiyakovskiy hisobotlari, V.L.Shuls, V.A.Shishkin, V.P.Drobov hamda A.R.Muhammadjonovlarning fundamental adabiyotlaridan foydalanildi.

Shuningdek, maqolada tarixiylik, analiz va sintez, qiyosiy -tipologik tahlil, izchil-xronologik yondashuv usullaridan foydalanildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Zarafshon daryosining shakllanishi yer shari tarixini geologik davrlashtirishdagi "Pleistotsen" davrida, arxeologik davrlashtirishning "Paleolit" davriga borib taqaladi. Bu davrda O'rta Osiyoda Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon daryolari vujudga keladi. O'z davrida bu daryolar Kaspiy dengiziga quyilgan bo'lib, ularning hududi janubda Pomir-Oloy, shimolda Tyan-shan, g'arbiy tomonda Hindikush va Kopet tog' tizmalari shaklida cho'zilib, Kavkaz va Karatayda Elburs bilan bog'lab, janubi-g'arbiy Tyan-Shandan, shimoli-sharqiy Orol dengizigacha borib yetgan.


Zarafshon daryosi shimoldan Turkiston, janubdan Hisor hamda Zarafshon tizmalari tutashgan yerda 3154 metr balandlikda joylashgan Zarafshon muzligidan (muzlikning uzunligi 24,7 km, kengligi 1,7 km bo'lib, qalinligi 200 m.ni tashkil qiladi[1]) boshlanib, g'arbda Qizilqumning Sandiqli qumigacha (781 km) cho'zilgan[2]. Zarafshon vodiysi hududi asta-sekin kengayib borib, daryosining eng yuqori qismida uning eni 4-5 km bo'lib, Kishtutsoyning Zarafshonga quyiladigan joyidan havza yana torayadi. Undan kuyida esa vodiy yana kengaya borib, Buxoro vohasi hududlarida uning eni 60-70 kmgacha borib yetadi [3]. Zarafshon vodiysining O'zbekiston qismidagi uzunligi 480 km ga yaqin bo'lib, aynan shu hududlar bo'ylab mana shu masofada tarixiy davrlarda Samarqand, Buxoro va Qorako'l vohalari tashkil topgan.

V.L.Shuls asarlarida Zarafshon daryosini Amudaryoning qadimgi irmog'i deb aytib o'tadi [4]. Haqiqatdan ham Golotsen davrida neotektonik jarayonlar faol kechishi natijasida Turon plitasining janubiy mintaqalarida o'sish tezlashadi.

Poykand Qorako'l massivi birmuncha ko'tariladi. Zarafshonning qadimiy oqimi Buxoro vohasida damlanib, hozirgi Yakkatut yaqinida Moxondaryo va Gujayli o'zanlari bo'ylab Qizilqumning ichkarisiga tomon urib ketadi. Bu ikki qadimiy o'zan bo'ylab u Chuqurko'l, Moxonko'l, Urtako'l, Chandirko'l, Zamonbobo, Kichiktuzkon, Kattatuzkon, Lo'xli, Og'achuyuq, Qandirli, Qayiqli, Qurbonboy, Rahmatbobo, Kichikporson, Kattaporson va Echkiqiron kabi bir qancha ko'llar zanjirini hosil qiladi. So'ngra 150 km masofada butun Urganjiy dashtini kesib o'tib, Oqrabod va Nargizqal'a degan joylarda Amudaryoga borib quyiladi. Qadimda Zarafshonni Amudaryo bilan tutashtirgan Moxondaryoning suvsizlikdan keyinchalik qurib qolgan ko'hna o'zanlari hozirgi vaqtda tamoman quruq va usti po'rsiq sho'r hamda atrofi yulg'un bosgan ko'llar orasida deyarli bilinmay ketgan bo'lsa-da, ammo cho'l bag'rida, xususan, barخانlar ostida juda yaxshi, saqlangan. Ba'zi joylarda uning kengligi 30, chuqurligi esa 1,5-2 metrga boradi.

Moxondaryoning o'zanlaridan biri Amudaryoning o'ng qirg'og'iga joylashgan Nargizqal'a yaqinida to'rtta arnaga ajralib, delta hosil qiladi va chuqur hamda keng jarliklar orqali Amudaryoga borib tutashadi. Jarliklarni mahalliy aholi «suvlot» deb ataydi. Ulardan birinchisi Oxursuvlot, ikkinchisi Jilg'indisuvlot yoki Yulg'unlisuvlot, uchinchisi Sho'rsuvlot yoki Oyxonsuvlot, to'rtinchisi Suvlisuvlot yoki Digisuvlot nomlari bilan mashhur. Bu suvlotlarning eni 75-125, chuqurligi esa 15-20 metrga teng. Moxondaryoning yana bir o'zani Nargizqal'adan 18km janubi-sharqda joylashgan

Oqrabod mavzei yaqinida Sho'ryotoq, Sariboy, Poyanda, Qumsuvlot va Jarsuvlot kabi beshta tarmoqqa bo'linib, u ham Amudaryoga birlashadi (Rasm 1)[5].




Rasm 1. Rocco Rante va Dj.Mirzaakhmedov xaritasi [14].

Miloddan avvalgi 6-5-mingyilliklarda Zarafshon daryosi Amudaryoga quyila boshlanishi natijasida Zarafshonning delta qismi ham odamlar yashashi uchun qulay hududga aylana boshlanadi. Natijada hududlarni aholi tomonidan o'zlashtirish boshlanadi [17].

Golotsen davrida Buxoro vohasi hududida yashil dashtlar, ko'plab ko'llar va kanallar mavjud bo'lgan. Hayvonot dunyosida qushlar va baliqlar juda ko'p bo'lgan. Zarafshon vodiysida hali sug'orma dehqonchilik vujudga kelmaganida daryoning barcha suvlari Buxoro vohasi tomon intilgan. Mil.av. 3 ming yillikka kelib Markaziy Osiyoda iqlim harorati isishi oqibatida, Buxoro vohasida cho'llanish boshlanadi[6]. Shu davrdan boshlab vohada Zarafshon daryosining ahamiyati har qachongidan ortadi. Buxoro vohasining shimoliy-sharqiy va markaziy qismlari aholi tomonidan o'zlashtirilishi natijasida Zarafshondan suv olgan Buxoroning g'arbiy qismidagi Mohondaryo, Gurdush, Gujayli, Zamonbobo ko'li, Chuqurko'l, O'rtako'l va boshqa suv havzalari quriydi. Hududlardagi suvi ko'llar tuzkonlarga aylanadi [16].

Mil.av. 3 ming yillikka kelib Markaziy Osiyoda iqlim harorati isishi oqibatida, Buxoro vohasida cho'llanish boshlanadi [7]. Buxoroning juja katta hududlari aholi tomonidan o'zlashtirilishi natijasida Zarafshon daryosining suvi Amudaryogacha bormay qoladi. Zarafshondan suv olgan Buxoroning g'arbiy qismidagi Mohondaryo, Gurdush, Gujayli, Zamonbobo ko'li, Chuqurko'l, O'rtako'l va boshqa suv havzalari quriydi. Zarafshon Buxoroning Qorako'l hududiga borib cho'lga singib ketadi. Natijada Zarafshon daryosining suvi Amudaryogacha bormay qoladi (Rasm 2) va Zarafshon daryosining suvining qadri Buxoro vohasi uchun har qachongidanda ortadi.

TARIX



Rasm 2. Rocco Rante va Dj.Mirzaakhmedov xaritasi [14].

Hozirgi Navoiy shahridan quyiyoqdan boshlab, Zarafshon deyarli har ikki tomondan o'rab olingan cho'llar orasida qoladi. Daryoning o'ng sohili bo'ylab Konimex cho'lining janubiy qismlari sug'orilgan[8], daryoning bu o'zani V.A.Shishkin tomonidan Konimex arig'i deb nomlangan[9]. Zarafshonning chap sohili bo'ylab Cho'limalikning shimoliy qismini suv bilan taminlab Hazora darbandiga oqib kiradi[10].

Hazora darbandidan chiqqach, u o'z vodiysining quyi qismi tomon yo'l oladi. Vodiyning quyi qismiga kirishi bilan Zarafshon daryosining oqim yo'nalishi janubi-g'arb tomon buriladi. Shu yo'nalishda u konussimon shaklda Buxoro vohasini hosil qiladi. Manbalarda qayd etilishicha Buxoro vohasi hududida Zarafshon dayosidan 35 ta kanal va suv havzalari bosh olgan.

Zarafshon daryosi Buxoro vohasiga kimgach daryodan uning yeng qadimgi yirik tabiiy irmog'i Vobkentdaryo ajralib chiqadi. Vobkentdaryo haqida Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida ham malumotlar uchraydi. Narshaxiy asarida Vobkentdaryo "Xifrat" nomi bilan atalib "Hamma anhorni xalq qazigan, ammo Xifrat anhorining qazilishida xalq zahmat chekmagan, suvning o'zi uni o'yib qazigan"-deb takidlaydi. Vobkentdaryo o'z navbatida bir qancha irmoqlarga bo'linib 40 ming gektar maydonni suv bilan taminlagan[11], bu hududlar hozirda Buxoro viloyatining Vobkent, Romitan va Jondor tumanlariga to'g'ri keladi.

Vobkentdaryodan 10 km quyida Buxoro va uning atrofini suv bilan taminlagan Shohrud kanali bosh oladi. Bu joy Duoba nomi bilan ataladi [12]. Qadimda Zarafshon daryosining deltasi Amudaryogacha borib yetishganligini Zarafshon daryosining quyi qismida qadimgi irmog'i Moxondaryo faoliyatidan ko'rishimiz mumkin[13]. Moxondaryo Qorako'ldaryoning o'ng qirg'og'idan shimoli-g'arbgacha tomon ajralib chiqadi va vohani suv bilan taminlaydi. Vohaning janubiy-g'arbiy qismi ham Zarafshon daryosi sababli, aholi yashashi uchun qulay makon hisoblangan.

XULOSA

Buxoro vohasi 4 tomondan cho'l bilan chegaralangan hisoblanadi. Voha shimoliy qismdan Qizilqum atrofidagi Ichkilikum cho'li bilan, sharqiy qismdan noyob o'simliklar o'suvchi Cho'limalik bilan, janubdan Kanobcho'l bilan (hozirda Samarqand viloyatiga to'g'ri keladi), g'arbda esa Qizilqum cho'li bilan chegaradosh. Buxoro vohasi tabiiy-geografiyasi shakllanishida, ming yillar mobaynida o'zlashtirib, obod etilgan sug'orma dehqonchilik yerlarining suv bilan taminlashda Zarafshon daryosining tutgan o'rni muhim ahamiyat kasb etganini, vohada daryodan 35ta magistral kanallar oqib chiqqanidan ham ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun, tarixchilar tomonidan

“Buxoro-Zarafshon daryosining tuhfasi” deb ta’kidlaganiga va ilmiy adabiyotlarda Buxoro vohasi “Quy i Zarafshon vohasi” deb yuritilishiga guvoh bo’lamiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Muḥammadjonov A.P. Quy i Zarafshon vodiysining suғoriliḥ tarixi. –Toḥkent,1972. -B.22.
2. Шульц В.Л. Гидрография Средней Азии. –Ташкент,1958. -С.59.
3. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3 жилд, 2002 йил, 675 бет.
4. Шульц В.Л. Гидрография Средней Азии. –Ташкент,1958. -С.57.
5. Тураев Ҳ.Ҳ. Бухоро тарихи (ўқув қўлланма). –Бухоро;Дурдона,2020. -Б.53-54.
6. Шмидт М.А. Геологический и гидрогеологический очерк западной части Зеравшанскон котловины.— «Материалы по гидрогеологии и инженерной геологии УзССР». вып. V, Ташкент, -С.28.;
7. Шишкин В.А. Варахша. –М.,1963. -С.8.
8. Ситияковский Н. Ф. Заметки о Бухарской части долины Зеравшана.- ИТОРГО. Кн.1. вып. II. - Ташкент,1900. стр. 129.
9. Шишкин В.А. Варахша. –М.,1963. С.10.
10. Muḥammadjonov A.P. Quy i Zarafshon vodiysining suғoriliḥ tarixi. –Toḥkent,1972. -Б.25.
11. Нурматов К.Н. Экономические проблемы комплексного развития сельского хозяйства. -Ташкент,1961. -С.43.
12. Muḥammadjonov A.P. Quy i Zarafshon vodiysining suғoriliḥ tarixi. –Toḥkent,1972. -Б.26.
13. Дробов В.П. Река Махан-Дарья.—ИСАГО. Т. XX. -Ташкент,1932.-С.1-11.
14. Rocco Rante., Mirzaakhmedov Dj. The Oasis of Bukhara.-Boston:Brill,2019.-P.19.
15. Ochilov A.T. Вухоро археологийаси.-Вухоро:Дурдона,2023. – 243 б.
16. Холматов Н.У. Мезолит и неолит Нижнего Зарафшана. - Тошкент: Фан, 2007.
17. Гулямов Я.Г., Исламов У., Аскарлов А. Первобытная культура в низовьях Зарафшана. – Ташкент, 1966. – 266 с.